YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON QADRI AZIZ!

YANGI BEKOBOD

Toshkent viloyati Bekobod tumani ijtimoiy-siyosiy gazetasi

Gazeta 1931-yildan chiqa boshlagan

2026-yil 30-iyun, №25 (8043)

VORISLIK FAQAT FAXRLANISH EMAS, VORISLIK BU ULKAN MAS’ULIYAT HAMDIR!

Shavkat MIRZIYOYEV



PREZIDENTIMIZ YOSHLAR BILAN UCHRASHIB, YANGI TASHABBUSLARNI ILGARI SURDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan yoshlar bilan uchrashuv o‘tkazdi. Davlatimiz rahbari so‘zining avvalida yurtimizdagi barcha yigit-qizlarni bayram bilan samimiy tabrikladi.

– *Biz islohotlarimizning ilk kunlaridan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning orzu va intilishlarini ro‘yobga chiqarishni davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab olganmiz,* – dedi Prezidentimiz.

So‘nggi yillarda bu borada mutlaqo yangi tizim yaratildi. Har bir mahallada yoshlar yetakchilari faoliyati yo‘lga qo‘yildi, yigit-qizlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, bandligi, ta’limi, kasb-hunar egallashi va tadbirkorlik boshlashi uchun keng imkoniyatlar ochildi. Har haftaning payshanba kuni “Yoshlar kuni” etib belgilanib, vazirlik va idoralar yoshlar muammolarini o‘rganish hamda ularga yechim topishga safarbar etildi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida “Yoshlar daftari” orqali 1,5 million nafar yoshning muammosi hal qilindi. Yosh tadbirkorlar soni 5 karra ko‘payib, 287 mingdan oshdi. Xorijiy tillarni intensiv o‘rganayotgan yigit-qizlar soni 3,5 million nafarga yetdi. Iqtidorli o‘quvchi va talabalar nufuzli fan olimpiadalarida 434 ta, yosh sportchilar xalqaro musobaqalarda 2 ming 245 ta medalni qo‘lga kiritdi.

Davlatimiz rahbari bugungi global raqobat sharoitida mamlakatlarning ustunligi, avvalo, bilim, texnologiya va inson kapitali bilan belgilanayotganiga e’tibor qaratdi.

– *Bilinglar, endi davlatlar hududi bilan emas, bilimi bilan, aholi soni bilan emas, texnologiyasi bilan, tabiiy boyliklari bilan emas, inson kapitali bilan raqobatga kirishmoqda. Bilim, ilm-fan va tafakkur mahsuli bo‘lgan yangi “Bilimlar iqtisodiyoti” hal qiluvchi kuchga aylanib bormoqda,* – dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari yoshlarni buyuk ajdodlarimizga munosib voris bo‘lishga, Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga da’vat etdi.

Uchrashuvda Prezidentimiz O‘zbekiston milliy terma jamoasining futbol bo‘yicha jahon chempionatidagi ishtirokiga ham to‘xtaldi. Futbolchilarimiz kuchli raqiblar bilan o‘yinlar orqali katta tajriba orttirgani, Abbos Fayzullayev va Eldor Shomurodovning jahon chempionatidagi ilk gollari xalqimizga quvonch bag‘ishlagani ta’kidlandi.

– *Vatanimiz sharafini himoya qilgan terma jamoamiz a’zolariga ortiqcha his-tuyg‘u bilan e’tiroz bildirish, ulardan ayb qidirish xalqimizga xos ish emas. Aksincha, bugun ularni qo‘llab-quvvatlash, ruhini ko‘tarish har qachongidan ham muhim,* – dedi Prezidentimiz.

Katta g‘alabalar hali oldinda ekani, buning uchun bolalar futboliga e’tibor kuchaytirilib, futbol umummilliy harakatga aylantirilishi, kelasi yil yanvar oyida Saudiya Arabistonida o‘tadigan Osiyo kubogiga tayyorgarlik hozirdan boshlanishi qayd etildi.

Prezidentimiz yoshlarning hayotda munosib o‘rin topishi uchun bilim, kasb va texnologiyani eng muhim tayanch sifatida ko‘rsatdi.

Shu maqsadda har yili 500 ming nafar o‘g‘il-qizni zamonaviy kasbga o‘qitishga qaratilgan “Kelajak bilimlari ekotizimi” yo‘lga qo‘yiladi. O‘quv markazlari tashkil etish istagidagi yoshlarga yer va davlat obyektlari imtiyozli shartlarda beriladi, zarur infratuzilma davlat hisobidan yaratiladi, markazlarni qurish va jihozlash uchun kredit stavkasi kompensatsiya qilinadi.

Qo‘lida kasbi bor, lekin yangi ko‘nikmalarni egallamoqchi bo‘lgan yoshlar uchun “kasb vaucheri” joriy etiladi. Har yili 50 ming nafar yoshning zamonaviy kasblarni o‘rganish xarajatlari foizsiz ssuda hisobidan qoplanadi. Ehtiyojmand oilalardagi 85 ming nafar ishsiz yoshga xususiy o‘quv markazlarida kasb egallashi uchun bepul vaucher beriladi. Shu yilning o‘zida bu tizim uchun 120 milliard so‘m ajratiladi.

Texnikumlarda xususiy sektor ishtiroki kengaytirilib, litsenziya talablari soddalashtiriladi. Yangi o‘quv yilidan xususiy texnikumlarga ham kasbga o‘qitish bo‘yicha davlat granti ajratiladi. Xalqaro kasb tanlovlari g‘oliblari va ularning ustozlari pul mukofotlari bilan rag‘batlantiriladi.

Xorijiy tillarni mukammal biladigan 650 mingdan ziyod yoshlar salohiyatidan mamlakatimizning boy tarixi, madaniy merosi, turizm va eksport imkoniyatlarini xalqaro maydonda targ‘ib qilishda foydalanish muhimligi ta’kidlandi. Shu maqsadda “raqamli kontent” platformasi ishga tushirilib, har yili 20 milliard so‘mdan ajratiladi.

Xorijda ta’lim olayotgan yoshlar bilan ishlash bo‘yicha ham yangi tizim yaratiladi. Yetakchi xorijiy oliygohlarda o‘qiyotgan 14 mingdan ortiq yigit-qiz ta’til davrida yurtimizdagi vazirlik, hokimlik, davlat va xususiy kompaniyalarda amaliyot va stajirovka o‘tashi uchun raqamli muloqot platformasi ishga tushiriladi. “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali yoshlarni xususiy sektor buyurtmasi asosida ham nufuzli xorijiy oliygohlarda o‘qitish imkoniyati yaratiladi.

Prezidentimiz oliygoh bitiruvchisini ishga olgan tadbirkorlar uchun yosh mutaxassisga nisbatan daromad va ijtimoiy soliq bir yil davomida 1 foiz etib belgilanishini e’lon qildi. Bu 200 mingga yaqin bitiruvchini ishga joylashtirish uchun muhim rag‘bat bo‘ladi.

Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan, harbiy xizmat, migratsiya va jazoni o‘tab qaytgan, jismoniy imkoniyati cheklangan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash uchun “Kafolatlangan birinchi qadam” paketi joriy etiladi. “Ustoz – talaba” dasturi asosida uyushmagan yoshlarga ko‘maklashgan talabalar ham rag‘batlantiriladi.

Shuningdek, “Yoshlar mini-franshizasi” dasturi ishga tushiriladi. Mahalliy brendlar franshizasini oladigan yigit-qizlarga Yoshlar tadbirkorligi jamg‘armasidan 300 million so‘mgacha foizsiz ssuda ajratiladi. Bu dasturlar uchun 500 milliard so‘m yo‘naltiriladi.

Innovatsion startaplarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ham yangi vazifalar belgilandi.

– *Biz 2030-yilgacha iqtisodiyot hajmini 240 milliard dollardan oshirishni reja qilganmiz. Bunga erishish uchun barcha sohalarga yangi g‘oya olib kiradigan innovatsion startaplar kerak,* – dedi davlatimiz rahbari.

So‘nggi to‘qqiz yilda mahalliy startap ekotizimi 15 barobar o‘sib, 4 milliard dollardan oshgani, 1 ming 200 dan ziyod istiqbolli startap loyihalar paydo bo‘lgani qayd etildi. Endi har bir vazir, tarmoq rahbari va hokim “mingta masalaga – yoshlardan mingta yechim” loyihasini ishga tushiradi. Yoshlar ishlari agentligi biznes, axborot texnologiyalari va kreativ iqtisodiyot yo‘nalishidagi 100 ta eng yaxshi loyihaga 1 milliard so‘mgacha investitsiya kiritadi.

Axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt sohasida yoshlar uchun yanada keng imkoniyatlar yaratiladi. “Raqamli hukumat” markazida birinchi superkompyuter klasteri ishga tushirildi, kelgusi yil uning quvvati 3 karra oshiriladi. Joriy yilda 20 ta oliygohda sun’iy intellekt laboratoriyalari tashkil etiladi. Yoshlar ushbu imkoniyatlardan bepul foydalanib, hudud va tarmoqlardagi muammolarga yechimlar ishlab chiqadi.

Yangi AT parklar barpo etilishi hisobidan 20 mingdan ziyod yigit-qiz uchun yuqori daromadli ish o‘rinlari yaratiladi. “Mening birinchi kompyuterim” dasturi orqali ehtiyojmand oilalardagi 10 ming nafar yoshga noutbuk xaridi uchun yordam ko‘rsatiladi.

AT va sun’iy intellekt yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun “dual ta’lim” kengaytiriladi. “Muhammad al-Xorazmiy” nomidagi davlat stipendiyasi hamda iqtidorli qizlar uchun “Muhandis qizlar” stipendiyasi ta’sis etiladi. Xalqaro olimpiadalar g‘oliblariga berilayotgan 1 milliard so‘mlik rag‘bat sun’iy intellekt bo‘yicha xalqaro olimpiada g‘oliblariga ham tatbiq qilinadi.

– *Biz yoshlarga yaratib berayotgan imkoniyatlardan hech bir o‘g‘il-qizimiz chetda qolmasligi kerak,* – dedi Prezidentimiz.

Shu maqsadda “Vatan mehri – ijtimoiy tashabbuslar” tanlovi, ijtimoiy xavf guruhidagi bolalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Qanot” loyihasi yo‘lga qo‘yiladi. “Yoshlar tashabbuslari marafoni”da ilgari surilgan g‘oyalarni amaliy loyihaga aylantirish uchun “Tashabbuslar ofisi” tashkil etiladi va bu ishlarga 50 milliard so‘m ajratiladi.

Uchrashuvda giyohvandlik va psixotrop moddalar bilan bog‘liq jinoyatlar yoshlar kelajagi va millat genofondiga katta tahdid solayotgani ham qayd etildi.

– *Bu illatning yoshlarimiz orasida ildiz otishiga aslo yo‘l qo‘ymaymiz, uni tag-tomiri bilan quritmaguncha to‘xtamaymiz. Giyohvandlik insonning eng qimmatli boyligi – sog‘lig‘i, aql-irodasi, orzu-maqsadlaridan ayiradi. Unutmang! Hayot insonga bir marta beriladi. Bunday illatlarga nisbatan murosasiz bo‘ling, umrning har bir daqiqasini ezgu ishlarga sarflang!* – dedi davlatimiz rahbari.

Prezidentimiz ota-onalarga ham murojaat qilib, farzandning kamol topishi, uning yorqin kelajagi uchun mustahkam poydevor, eng avvalo, oilada yaratilishini ta’kidladi. Ota-onalarni bugungi tez o‘zgarib borayotgan murakkab sharoitda farzand tarbiyasiga har qachongidan ham e’tiborli va mas’uliyatli bo‘lishga chaqirdi.

Uchrashuvda yoshlar bilan ochiq muloqot bo‘lib o‘tdi. Ular o‘z taklif va tashabbuslarini bildirdi.

Davlatimiz rahbari muloqot yakunida yigit-qizlarni katta marralar sari dadil intilishga, bilim, kasb va zamonaviy texnologiyalarni puxta egallashga da’vat etdi.

Sarvinoz SHERALIYEVA tayyorladi.

Shodiyona

YOSHLAR BAYRAMI: ERTAMIZ EGALARIGA EHTIROM

Muhtaram Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Mening suyanchlarim”, deya e’tirof etiladigan yosh avlod mamlakatimizning eng katta boyligi, bugungi taraqqiyotimizning faol ishtirokchisi va ertangi kunning bunyodkoridir. Bugungi tezkor o‘zgarishlar, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt davri har bir yoshdan zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni puxta egallashni, yangicha fikrlashni hamda raqobatbardosh bo‘lishni talab etmoqda. Shu bois yoshlarning salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va o‘z iste’dodini namoyon etishi uchun keng imkoniyatlar yaratish nafaqat ularning, balki davlatimiz va jamiyatimiz taraqqiyotining ham muhim omili hisoblanadi.

Shu maqsadda, so‘nggi 2 yilda tumanimizda yoshlarni bilim va kasblarga o‘qitish, tadbirkorlikka jalb etish, buning uchun zarur infratuzilma yaratishga barcha manbalar hisobidan 200 milliard so‘mdan ziyod mablag‘lar yo‘naltirildi.

Tumanda barpo etilgan Ay-Ti markazi, o‘nlab savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari, iqtisodiyot tarmoqlarida yo‘lga qo‘yilayotgan ishlab chiqarish loyihalari yoshlar o‘z bilim va salohiyatlarini namoyon etishlariga imkoniyat yaratmoqda.

Katta quvonch bilan qayd etish joizki, tumanimiz tarixida ilk bor oliy ta’lim dargohi tashkil etildi. Mana shu yil sentyabrdan boshlab Olmaliq davlat texnika institutining Bekobod filiali dastlabki 400 nafar talabani qabul qiladi.

Shuningdek, ilg‘or bilim va kasblarga o‘rgatuvchi ta’lim klasteri tashkil etilib, u o‘z ichiga zamonaviy bog‘cha, nufuzli xorijiy oliygohlarga tayyorlovchi maktab va o‘rta tibbiy xodimlarni yetishtirib beruvchi texnikum faoliyatini qamrab olgan. Biroq, yoshlar bandligini ta’minlash, ularga munosib ish o‘rinlari tashkil etish va doimiy daromadli qilish tuman mas’ullari uchun birinchi galdagi muhim vazifa bo‘lib qolaveradi.

Bu yil tumanimiz bo‘yicha jami 2438 nafar o‘quvchilar maktabni tamomlab, ulardan 47 nafari oltin medal, 7 nafari kumush medal bilan o‘qishni yakunladilar. Yana bir quvonarli tomoni, hozirgi kungacha ularning 27 nafari eng yuqori ball to‘plagan holda muddatidan oldin talaba bo‘lish baxtiga muyassar bo‘ldilar.

Maktablar va oliygohlarni bitirib, mehnat bozoriga kirib kelayotgan navqiron ishchi kuchini to‘g‘ri yo‘naltirish, “yoshlik kapitali”dan samarali foydalanish yangilanib borayotgan Bekobodimiz uchun bugun har qachongidan muhim. Sababi, bosqichma-bosqich foydalanishga topshirilayotgan har bir obyekt – u yangi bozorlar bo‘ladimi, parrandachilik va baliqchilik xo‘jaligimi, ta’lim klasteri yoki mashhur brendlar shoxobchasimi, bularning barchasida o‘zimizning yoshlar ishlaydi.

Endi o‘g‘il-qizlarimizga arzon ishchi kuchi deb emas, aksincha, yuqori salohiyatli, puxta ilmli va dunyoqarashi keng qudrat manbai sifatida qarash vaqti keldi. Shundagina, nafaqat tumanimiz, balki butun yurtimiz uchun yetuk kadrlarni tayyorlashimiz mumkin.

Ana shunday ezgu maqsad va yutuqlar 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan Bekobod tumanida tashkil etilgan tantanali bayram tadbirida yana bir bor o‘z ifodasini topdi. Ko‘tarinki ruhda o‘tgan tadbirda tuman hokimi barcha yoshlarni samimiy muborakbod etib, ularning mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni va mas’uliyati haqida alohida to‘xtaldi. Marosim davomida umumta’lim maktablarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar, muddatidan oldin talabalikka tavsiya etilgan yoshlar, oltin va kumush medal sohiblari tantanali ravishda taqdirlandi. Shuningdek, “Hokim olimpiadasi” hamda “IT Bilimdoni” tanlovlari g‘oliblari, turli sohalarda fidoyilik bilan mehnat qilayotgan faol yoshlar faxriy yorliq va esdalik sovg‘alari bilan rag‘batlantirildi.





Tadbirda 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan bir guruh jurnalistlar, matbuot xodimlari va blogerlarga ham ehtirom ko‘rsatildi. Bayramning ikkinchi qismi markaziy o‘yingohda davom etib, iste’dodli san’atkorlar hamda taniqli estrada xonandalari ijrosidagi kuy-qo‘shiqlar, sahna ko‘rinishlari va madaniy dasturlar yig‘ilganlarga unutilmas lahzalarni tuhfa etdi.



Yoshlar kuni nafaqat bayram, balki har bir yigit-qiz uchun yangi marralar sari dadil odim tashlash, o‘z oldiga ulkan maqsadlar qo‘yish va ularga qat’iyat bilan intilish ramzidir. Ishonchimiz komilki, Bekobod yoshlari o‘z bilimlari, iste’dodi, tashabbuskorligi va fidoyiligi bilan Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib, Prezidentimiz bildirayotgan yuksak ishonchni amaliy ishlari bilan oqlaydilar. Zero, ularning ortida ulkan e’tibor, mustahkam tayanch va buyuk Vatanimizning ishonchi turibdi.



Barcha yoshlarimizni ushbu qutlug‘ ayyom bilan samimiy muborakbod etib, ularga mustahkam sog‘lik, cheksiz shijoat, ilm va mehnatda ulkan zafarlar, orzu-maqsadlariga erishish yo‘lida omad hamda yurtimiz ravnaqi yo‘lidagi bunyodkorlik ishlarida ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Sarvinoz SHERALIYEVA

Jarayon

DOLZARB MASALALAR KO‘RIB CHIQILDI

Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashining VII chaqiriq navbatdagi 29-sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Sessiya kun tartibiga hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholi farovonligini oshirish hamda muhim sohalarga oid dolzarb masalalar kiritildi.

Sessiyada tumanda sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarining ijrosi, kasalliklarning oldini olish, sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish hamda tibbiyot sohasining asosiy ko‘rsatkichlari muhokama qilindi. Mazkur masala yuzasidan tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i D.Eshonxonovning hisoboti tinglandi.

Shuningdek, tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar holati ko‘rib chiqildi.

Sessiya davomida “Qo‘shtamg‘ali” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida “Mening bog‘im” loyihasi doirasida “Yashil jamoat parki”ni tashkil etish masalasi ham muhokama qilindi.

Bundan tashqari, tuman hokimligi huzuridagi “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armasi hamda mahalliy byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish, “Tashabbusli byudjet” loyihalari doirasida rejalashtirilgan mablag‘larga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yuzasidan takliflar ko‘rib chiqildi.

Yer munosabatlari sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, jumladan, o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari hamda ularda barpo etilgan bino va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan ham axborot berildi.

Sessiya yakunida kun tartibiga kiritilgan barcha masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilinib, ularning ijrosini ta’minlash bo‘yicha mas’ul tashkilot va mutasaddilarga aniq vazifalar belgilab berildi. Qabul qilinayotgan har bir qaror esa hududni kompleks rivojlantirish, aholi turmush farovonligini yuksaltirish hamda mavjud muammolarni o‘z vaqtida hal etishga xizmat qiladi. Shu ma’noda, Xalq deputatlari Kengashi sessiyalari davlat va jamiyat manfaatlari uyg‘unligini ta’minlash, hudud taraqqiyotini jadallashtirish hamda xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi muhim tashkiliy-huquqiy maydon sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.



Bekobod tumani hokimligi
Axborot xizmati

G‘alla – 2026

HOSIL BARAKASI – MEHNAT SAMARASI

Bekobod tumanida 2026-yil g‘alla hosilini o‘rib-yig‘ib olish mavsumi qizg‘in davom etmoqda. Mirishkor fermerlar, mexanizatorlar va barcha soha vakillarining fidokorona mehnati samarasi o‘laroq, davlat xaridi bo‘yicha belgilangan g‘alla topshirish rejasi muddatidan oldin ortig‘i bilan bajarildi.



Joriy yilda tumanda 264 ta fermer xo‘jaligi hamda “Global Textile Group Agro” klasteri tomonidan 12 ming gektar maydonda g‘alla parvarishlandi. Mavsum davomida jami 120 ming tonnadan ziyod don yetishtirish rejalashtirilgan bo‘lib, shundan 19 ming 938 tonnasi davlat xaridi, 722 tonnasi urug‘lik, 18 ming 988 tonnasi esa vaqtinchalik saqlash uchun belgilangan.

O‘rim-yig‘im ishlarini uyushqoqlik bilan tashkil etish maqsadida 41 ta o‘rim otryadi shakllantirilib, ularga 41 ta don o‘rish kombayni hamda 205 ta transport vositasi jalb etildi. Har bir o‘rim otryadiga ichki ishlar va favqulodda vaziyatlar xizmati xodimlari biriktirilib, mavsumning xavfsiz va samarali o‘tishi ta’minlanmoqda.

Joriy yil 29-iyun holatiga ko‘ra, mavsum boshidan jami 42 ming 127 tonna g‘alla don qabul qilish korxonasiga topshirildi. Shundan 20 ming 155 tonnasi davlat xaridi uchun, 21 ming 972 tonnasi esa vaqtinchalik saqlash uchun qabul qilindi. Natijada belgilangan reja 106,2 foizga bajarildi.

Bu natija tuman g‘allakorlarining yerga bo‘lgan mehri, mehnatsevarligi va mas’uliyatli yondashuvining yorqin ifodasidir. Ayniqsa, qator ilg‘or fermer xo‘jaliklari har gektardan 100 sentnerdan hosil olib, yuqori natijalarga erishdi.

Shunday natijaga erishganlar safida “Uzenboyev Shavkat”, “Boltaboyev Sherbo‘ta agro”, “Do‘stlik fayz agro”, “Ozodbek – O‘ktambek omad”, “Fayziyev Jamol”, “Qozonko‘l agro”, “Shoxruxbek – Shaxzodbek”, “Akrom To‘ychiyevich”, “Yoqubjonov Azizbek”, ‘Sherali – Otabek – Ulug‘bek”, “Haqiqat kuchi”, “Bog‘ishamol kelajagi agro”, “O‘lkam”, “Vohidjon – Umidjon”, “Sultonov Muhiddin”, “Farruxbek – Lazizbek fayz”, “Boybo‘ta”, “Firdavsbek – Jo‘rabek agro”, “Yusupov Obid fayz”, “Istiqlol”, “Marziyaxon agro”, “Arslonbek – G‘ulomjon agro”, “Quvvat – Tojiqul”, “Bek omad fayz agro”, “Muhtarama – Munavvar agro”, “Behruzbek – Ravshanbek agro”, “Abubakir – Yahyobek”, “O‘rikzor Abdulaziz fayz”, “Elyorbek Taraqqiyot agro”, “Norjigitov Nazir agro”, “Zilhaydarov Obid agro”, “G‘irot” fermer xo‘jaliklari hamda “Safar hoji bobo invest” va “Agro EXAMPLE” MCHJlar alohida e’tirofga loyiq. Ular erishgan natijalari bilan tuman qishloq xo‘jaligi rivojiga munosib hissa qo‘shmoqda.

Ayni kunlarda ham o‘rim-yig‘im ishlari izchil davom etmoqda. Yig‘ib olinayotgan hosilni nobud qilmasdan qabul qilish, sifatli saqlash hamda keyingi agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

G‘alla rejasining muddatidan oldin bajarilgani nafaqat raqamlar ifodasi, balki tuman dehqonlarining fidokorona mehnati, yurtimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qo‘shayotgan munosib hissasi hamda qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy samarasidir.

Tuman ahli barcha fermerlar, mexanizatorlar, haydovchilar, agronomlar va g‘alla mavsumida sidqidildan mehnat qilayotgan barcha zahmatkashlarni ushbu yutuq bilan muborakbod etadi hamda kelgusi faoliyatlarida ulkan muvaffaqiyatlar tilaydi.

Alisher PO‘LATOV

Yoshlar oyligi

“ZIYOLI” YOSHLARI: BILIM, BUNYODKORLIK VA INTILISH YO‘LIDA

Har yili an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan “Yoshlar oyligi” doirasida Ziyoli mahallasida uyushgan hamda uyushmagan yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, shuningdek, yoshlar uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar va yirik loyihalarni targ‘ib qilish maqsadida qator tashabbuslar amalga oshirildi.



Olib borilgan ishlar natijasida 2 nafar xotin-qiz mono markazlarda vaucher asosida “Zamonaviy pardalar tikish” kursini muvaffaqiyatli tamomlab, tegishli sertifikatga hamda o‘zini o‘zi band qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Shuningdek, “Qizlar akademiyasi” onlayn o‘quv kursida ishtirok etgan 4 nafar qiz turli kasblar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallab, sertifikatlarni qo‘lga kiritdilar.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan yo‘lga qo‘yilgan “Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasida yozgi ta’til davrida yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni sog‘lomlashtirish va kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha ham samarali ishlar olib borildi.

Xususan, Ziyoli mahallasi hududidagi 14-umumta’lim maktabida qizlar uchun “Mohir qo‘llar”, “Yozda til o‘rganamiz” kabi to‘garaklar tashkil etildi. Bundan tashqari, sportning turli yo‘nalishlari bo‘yicha musobaqalar hamda yosh kitobxonlar o‘rtasida “Zukko kitobxon” tanlovlari o‘tkazildi.

Mazkur tadbirlarda mahalla yoshlari faol ishtirok etib, o‘z bilim va iste’dodlarini namoyon etdilar. Faol qatnashchilar hamkor tashkilotlar tomonidan diplom va esdalik sovg‘alari bilan munosib taqdirlandi.

Yoshlar oyligi doirasida amalga oshirilgan ushbu tashabbuslar yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish hamda kelajak uchun zarur ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qildi.

Dilorom PIRNAZAROVA,
Bekobod tumani Ziyoli mahallasi yoshlar yetakchisi

Ezgu tashabbus



SPORT — TARBIYA VA IRODANI MUSTAHKAMLOVCHI VOSITA

Bekobod tumanida probatsiya nazorati ostida bo‘lgan yoshlar o‘rtasida sportning aql va tafakkurni charxlovchi turlari — shaxmat va shashka bo‘yicha musobaqa tashkil etildi.

Mazkur tadbir Bekobod tumani IIB JXX Probatsiya guruhi nazorati ostidagi yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni sportga keng jalb qilish hamda ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida o‘tkazildi.

Qiziqarli va murosasiz kechgan bellashuvlarda ishtirokchilar o‘zlarining bilim, tezkor fikrlash va strategik yondashuv qobiliyatlarini namoyon etdilar. Musobaqa davomida yoshlar nafaqat sport mahoratini, balki intizom va irodasini ham mustahkamladilar.

Yakunda g‘olib va faol qatnashchilar munosib taqdirlanib, ularga Bekobod tumani IIB boshlig‘ining qimmatbaho sovg‘alari topshirildi.

Tadbirning asosiy maqsadi yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularda vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish hamda kelgusida huquqbuzarliklarning oldini olishga ko‘maklashishdan iborat bo‘ldi.

Bunday sport va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar yoshlarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash, ularni ezgu maqsadlar sari yo‘naltirish va hayotda to‘g‘ri yo‘l tanlashlariga xizmat qiladi.

Jahongir NURMUHAMMEDOV

Xushxabar

SPORT VAKILLARI ILMIY MAYDON G‘OLIBI

Mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ularning sport, ta’lim va ilm-fan yo‘nalishlaridagi salohiyatini yuzaga chiqarishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar o‘zining amaliy samarasini bermoqda. Buning yorqin namunasi sifatida Bekobod tumani Sport maktabida kamondan otish sport turi bo‘yicha tahsil olgan yoshlarning erishayotgan yutuqlarini qayd etish mumkin.

Hozirda O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida tahsil olayotgan Bekobod tumani Sport maktabining sobiq tarbiyalanuvchilari Abdusamatova Ruxshona hamda Yusufjonova Sevinch xalqaro miqyosdagi ilmiy tanlovda muvaffaqiyatli ishtirok etib, yuqori natijalarga erishdilar.

Xususan, “Scientific Publication” ilmiy matbuot markazi tomonidan tashkil etilgan “Ilm-fan fidoyisi – 2026” xalqaro ilmiy-amaliy tanlovida qatnashgan yoshlar o‘z ilmiy maqolalari bilan hakamlar hay’atining e’tiborini qozonib, tanlov g‘oliblari safidan munosib o‘rin egalladilar.

Mazkur tanlov yosh olimlar, tadqiqotchilar va iqtidorli talabalarning ilmiy salohiyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning izlanishlarini rag‘batlantirish hamda innovatsion g‘oyalarini keng jamoatchilikka namoyish etishga xizmat qilmoqda. Unda ishtirok etgan yosh sportchilar ilm-fan va sportning o‘zaro uzviy bog‘liqligini amalda namoyon etib, sport maydonlarida erishilgan yutuqlar ilmiy faoliyatda ham yuqori natijalarga zamin yaratishini isbotladilar.

Tanlov yakunlariga ko‘ra, Abdusamatova Ruxshona va Yusufjonova Sevinch “Ilm-fan fidoyisi” ko‘krak nishoni, diplom hamda qimmatbaho esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar. Ushbu e’tirof yoshlarning ilmiy izlanishlari, mehnatsevarligi va o‘z ustida muntazam ishlashlari samarasi bo‘ldi.

Mazkur yutuq yosh sportchilar uchun yangi marralar sari dadil qadam bo‘lsa, tengdoshlari uchun esa munosib ibrat namunasidir. Bekobodlik yoshlarning ilm-fan maydonidagi ushbu muvaffaqiyati sport va ta’lim uyg‘unligining yorqin ifodasi sifatida e’tirofga loyiq.

Bekobod tumani Sport maktabi jamoasi g‘oliblarni samimiy muborakbod etib, ularning kelgusidagi ilmiy va sport faoliyatida yanada ulkan zafarlar tilaydi.

Jahongir SULTONOV,
Bekobod tumani Sport maktabi yo‘riqchi-uslubchisi

Qonun ustuvorligi

HAR BIR MUROJAAT E’TIBORDA

“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonun fuqarolar hamda yuridik shaxslarning davlat organlari va tashkilotlariga murojaat qilish sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solib, ularning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qilmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizda aholi bilan ochiq muloqot qilish, murojaatlar bilan ishlash va fuqarolar muammolarini hal etish borasida yangi tizim shakllandi. Inson huquq va manfaatlarini himoya qilishning samarali mexanizmi sifatida joriy etilgan ushbu tizim qisqa vaqt ichida o‘zining amaliy natijalarini ko‘rsata boshladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi, Prezident huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, Telegram-botlar, Edo.ijro.uz tizimi hamda O‘zagroinspeksiyaning murojaatlar tizimi orqali fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining murojaatlari qabul qilinib, belgilangan tartibda ko‘rib chiqilmoqda.

Jumladan, 2026-yilning yanvar–may oylarida O‘zagroinspeksiya Toshkent viloyati Bekobod tumani bo‘limiga jami 37 ta murojaat kelib tushdi. Joriy yilning may oyida esa bo‘limga 3 ta murojaat kelib tushgan bo‘lib, ularning barchasi o‘z vaqtida ko‘rib chiqilib, ijobiy hal etildi.

Misol tariqasida, 2026-yil 20-may kuni Bekobod tumani Qishloq xo‘jaligi bo‘limi tomonidan yuborilgan murojaat soha mutaxassislari tomonidan joyiga chiqib o‘rganildi va belgilangan muddatda ijobiy hal qilindi.

Shuningdek, tuman bo‘limida murojaatlarni o‘z vaqtida va sifatli ko‘rib chiqish, jismoniy hamda yuridik shaxslar vakillarini qabul qilish, murojaatlarning mualliflari ishtirokida o‘rganish, ularga qonunchilik talablari, murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi va muddatlari yuzasidan huquqiy tushuntirishlar berishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Takroriy murojaatlar kelib tushgan hollarda ularning sabablari chuqur tahlil qilinib, ilgari ko‘rib chiqilgan ariza va shikoyatlarning qonuniy hal etilgani o‘rganiladi. Murojaatlarni ko‘rib chiqishda rasmiyatchilik, sansalorlik va asossiz rad etish holatlariga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida esa vertikal nazorat tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, har bir mutaxassis kesimida tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha muntazam tahlil ishlari olib borilmoqda.

Otabek NORQOBILOV,
O‘zagroinspeksiya Toshkent viloyati boshqarmasi yetakchi mutaxassisi,
Aziz TURDIYEV,
O‘zagroinspeksiya Bekobod tumani bo‘limi boshlig‘i

Ogohlik

CHO‘MILISHDA EHTIYOT BO‘LING!

Yoz faslida havo haroratining ko‘tarilishi sababli aholi, ayniqsa, bolalar va yoshlar suv havzalarida dam olishni afzal ko‘radi. Biroq suvda xavfsizlik qoidalariga rioya etilmasa, cho‘kish va boshqa baxtsiz hodisalar yuz berishi mumkin. Shu bois har bir fuqaro suvda o‘zini tutish qoidalarini bilishi va ularga qat’iy amal qilishi zarur.

Cho‘milish uchun faqat ruxsat etilgan va qutqaruv xizmati faoliyat yuritadigan joylarni tanlash tavsiya etiladi. Chuqurligi noma’lum, oqimi kuchli yoki nazoratsiz suv havzalarida cho‘milish hayot uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Ayniqsa, bolalarni suv bo‘yida bir lahza ham qarovsiz qoldirmaslik lozim. Hatto sayoz suv ham ular uchun xavfli bo‘lishi mumkin. Ota-onalar va mas’ul shaxslar bolalarga suvda o‘zini tutish qoidalarini muntazam tushuntirib borishlari zarur.

Shuningdek, spirtli ichimlik iste’mol qilgan holda suvga tushish, suvning chuqurligi va haroratini tekshirmasdan sho‘ng‘ish, hazil tariqasida boshqalarni suvga itarish yoki xavf ostiga qo‘yish baxtsiz hodisalarga sabab bo‘lishi mumkin. Suzishni bilmaydigan fuqarolar esa, albatta, qutqaruv jileti yoki boshqa maxsus suzish vositalaridan foydalanishlari kerak. Charchoq yoki salomatlikdagi noxush holat sezilganda darhol suvdan chiqib, dam olish tavsiya etiladi.



Agar suvda yordamga muhtoj insonni ko‘rsangiz, avvalo, vahimaga tushmaslik, imkon qadar qutqaruv vositasidan foydalanish va o‘zingizni xavf ostiga qo‘ymasdan yordam ko‘rsatish zarur. Zarurat tug‘ilganda esa zudlik bilan 101 yoki 112 qisqa raqamlariga qo‘ng‘iroq qilish lozim.

Yozgi dam olish kunlarining mazmunli va xavfsiz o‘tishi har birimizning ehtiyotkorligimizga bog‘liq. Unutmang, oddiy xavfsizlik qoidalariga amal qilish inson hayotini saqlab qolishi, beparvolik esa og‘ir va qaytarib bo‘lmas oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Mirg‘iyos MAHKAMBOYEV,
Bekobod tumani Favqulodda vaziyatlar bo‘linmasi katta inspektori, katta leytenant,
Doston EGAMBERDIYEV,
kichik inspektor, kichik serjant

“Dolzarb o‘ttiz kunlik”

FITOSANITAR NAZORAT KUCHAYTIRILDI

Mamlakatimizda meva-sabzavot va poliz mahsulotlarini xorijiy bozorlarga eksport qilish hajmini oshirish, eksport mahsulotlarining sifatini ta’minlash hamda xalqaro fitosanitariya talablariga to‘liq rioya etish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Biroq ayrim hollarda eksport qilingan mahsulotlarda karantin obyektlari aniqlanib, xorijiy davlatlardan e’tiroznomalar (notifikatsiyalar) kelayotgani fitosanitar nazoratni yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligining tegishli buyrug‘i asosida 2026-yil 8-iyundan 8-iyulga qadar respublika bo‘ylab “Dolzarb o‘ttiz kunlik” tadbiri o‘tkazilmoqda.

Mazkur tadbir doirasida Bekobod tumani O‘simliklar karantini va himoyasi bo‘limi davlat inspektorlari tomonidan bog‘dorchilik va dehqon xo‘jaliklari, poliz maydonlari hamda aholi tomorqalarida fitosanitar nazorat ishlari kuchaytirildi.

Bekobod tumanining iliq iqlimi meva va poliz ekinlarining erta pishib yetilishiga qulay sharoit yaratishi bilan birga, zararkunandalar ko‘payishi uchun ham qulay muhit hisoblanadi. Shu sababli “Dolzarb o‘ttiz kunlik” davomida eksportbop mahsulotlarga jiddiy zarar yetkazuvchi karantin obyektlarini aniqlash va ularga qarshi kurashishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xususan, mevali bog‘larga katta zarar yetkazuvchi Sharq mevaxo‘ri (Grapholitha molesta), qovun va tarvuz hosilini nobud qiluvchi qovun pashshasi (Carpomya pardalina Bigot), shuningdek, madaniy ekinlarning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi zarpechak (Cuscuta spp.) hamda sudraluvchi kakra (Acroptilon repens D.C.) kabi xavfli karantin obyektlariga qarshi tizimli kurash ishlari olib borilmoqda.



Tadbirlarni uyushqoqlik bilan tashkil etish maqsadida Bekobod tumani hokimligi bilan hamkorlikda qo‘shma chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan. Ayni kunlarda davlat inspektorlari tomonidan dala va bog‘larda muntazam monitoring olib borilib, fitosanitar holat “Dala nazorati” elektron axborot tizimiga real vaqt rejimida kiritilmoqda.

Shu bilan birga, eksportga yo‘naltirilayotgan meva-sabzavot mahsulotlaridan namunalar olinib, karantin laboratoriyalarida fitoekspertiza o‘tkazilmoqda. Faqat karantin obyektlaridan xoli deb topilgan mahsulotlargagina ichki fitosanitariya sertifikatlari rasmiylashtirilmoqda.

“Dolzarb o‘ttiz kunlik” doirasida amalga oshirilayotgan ushbu tadbirlar eksport qilinayotgan mahsulotlar sifatini ta’minlash, xalqaro bozorlarda mamlakatimiz eksporti nufuzini mustahkamlash hamda xorijiy davlatlardan kelayotgan e’tiroznomalar sonini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Azizbek ABDUMUTALOV,
Tursunali ERNAZAROV,
Abdulatif ABDUQODIROV,
O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi Toshkent viloyati Bekobod tumani bo‘limi Fitosanitar nazorati davlat inspektorlari

Halollik mezoni



SHAFFOF TIZIM — SIFATLI XIZMAT GAROVI

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti davlat xizmatlarining ochiqligi, shaffofligi va adolat tamoyillari asosida faoliyat yuritishiga bevosita bog‘liq. Bu borada arxiv xizmatlari fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Zero, insonning mehnat faoliyati, ta’limi, mulkiy huquqlari va boshqa muhim ma’lumotlari aynan arxiv hujjatlarida saqlanadi. Shu bois arxiv tizimida shaffoflikni ta’minlash, ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish hamda korrupsiyaning oldini olish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir.

Arxiv xizmatlarining shaffof tashkil etilishi fuqarolarga tezkor, qulay va teng sharoitlarda xizmat ko‘rsatishni ta’minlaydi. Hujjatlarni olish tartibi, xizmatlar narxi, murojaatlarni ko‘rib chiqish muddatlari hamda zarur hujjatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning ochiq e’lon qilinishi fuqarolarning ortiqcha ovora bo‘lishining oldini oladi. Elektron navbat, onlayn murojaatlar va raqamlashtirilgan xizmatlarning joriy etilishi esa inson omilini kamaytirib, xizmatlar sifati va shaffofligini yanada oshirmoqda. Natijada murojaatchilar o‘z arizalarining qaysi bosqichda ekanini kuzatish imkoniga ega bo‘lmoqda.

Byurokratik to‘siqlar fuqarolarning vaqtini oladi, ortiqcha hujjatbozlikni keltirib chiqaradi va noroziliklarga sabab bo‘ladi. Ayrim hollarda keraksiz hujjatlar talab qilinishi yoki murojaatlarning uzoq muddat ko‘rib chiqilishi xizmat samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois xizmatlarni soddalashtirish, ortiqcha tartib-taomillarni qisqartirish hamda “bir darcha” tamoyilini keng joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Elektron arxiv tizimlari esa hujjatlarni tezkor topish va qisqa muddatda xizmat ko‘rsatish imkonini bermoqda.

Korrupsiya har qanday sohaning taraqqiyotiga jiddiy to‘siq bo‘luvchi salbiy illatdir. Arxiv tizimida uning oldini olish uchun xizmat jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish, xodimlarning mas’uliyatini oshirish, ichki nazorat va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir murojaatning elektron tizim orqali ro‘yxatga olinishi va nazorat qilinishi noqonuniy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xodimlarning kasbiy etikaga rioya qilishi, halollik va vijdon bilan faoliyat yuritishi tizim samaradorligini yanada oshiradi.

Fuqarolarning huquqiy savodxonligini yuksaltirish ham korrupsiyaga qarshi kurashning muhim omillaridan biridir. O‘z huquq va majburiyatlarini yaxshi bilgan fuqaro noqonuniy talab va xatti-harakatlarga murosasiz munosabat bildiradi. Ishonch telefonlari, onlayn murojaatlar va anonim murojaat qilish imkoniyatlari esa korrupsion holatlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, arxiv xizmatlarida shaffoflikni ta’minlash, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish va korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish davlat xizmatlari sifatini yuksaltirishning eng muhim omillaridan biridir. Zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish, halollik tamoyillariga qat’iy amal qilish hamda fuqarolar bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish orqali arxiv tizimini yanada samarali, ishonchli va zamonaviy xizmat ko‘rsatuvchi sohaga aylantirish mumkin.

Dilafruz HASANOVA,
Bekobod shahar davlat arxivi direktori

Tuman tarixidan

BEKOBODGA SUV KELTIRGAN MUHANDIS QIZ

Bekobodda uzoq yillar ishlagan mehnat faxriysi ya’ni Lenin (Dehqonobod) kolxozida kolxoz raisi, Bekobod tumanida raykom sekretari yordamchisi, tuman gazetasining bosh muharriri bo‘lib ishlagan Abduvali Qodirovning hikoya qilishicha:

Tatyana Aleksandrovna Kolpakovani kanalda ishlayotgan ishchilar injener qizi deb atashar edi. Kunlardan bir kuni aprel oyining oxirlarida faytun aravada Vasiliy bilan ketayotgan Tatyana unga qarab shunday dedi:

- Ishchilarning ikki oylik maoshini olib kelsak yaxshi bo‘lar edi.

Ular Golodopga yetib kelganlarida kun choshgoh edi.

- Men hisobotlarni topshirib, pul bo‘lsa oylik olaman, - dedi va birozdan so‘ng Tatyana xursand bo‘lib chiqdi. U ishchilarning ikki oylik maoshini olgan edi.

- Tushlikni yo‘lda qilamiz. Tushlik uchun yegulik oldim, - dedi u.

- Juda soz, ochiq havoda, yam-yashil maysalar ustida o‘tirib tushlik qilish ham kishiga quvvat bag‘ishlaydi. “Qoratoy”ga burilgach, qayerda to‘xtaymiz? - deb Tatyanaga murojaat qildi Vasiliy.

- Tog‘ yonbag‘riga hayda, - dedi Tatyana.

Aprelning boshlari. Tabiat bor go‘zalliklarini ko‘z-ko‘z qilgan, lolaqizg‘aldoqlar, qashqir yo‘ng‘ich, qo‘tirbosh, qo‘ziquloq kabi yuzlab turli-tuman o‘tlar tizzi bo‘yi o‘sib turibdi, gullarning hushbo‘y hidi dimoqqa uriladi.

Ikkovi o‘tirib tushlik qilishdi. Lola, turli-tuman dala gullaridan guldasta yasab, bir-birlarini siylashdi. Vasiliy birdan entikib, ma’yus ko‘zlari bilan Tatyanaga tikilib:

- Bir gapim bor, aytsam maylimi? — deya javdirab turar edi.

- Yo‘q Vasiliy, o‘zingni bos, aytadigan gaping menga ayon, hozir vaqti emas. Kanalni bitiraylik. Uzunquduqdagi, Chanoqdagi to‘g‘onlar, ko‘priklar, eh-he hali ancha ishimiz bor. 1929-yil oxirigacha kanalni bitirishimiz lozim. Tuzilayotgan xo‘jaliklarni suv bilan ta’minlashimiz kerak.

Ular bir oz sukunatdan so‘ng faytun aravaga chiqishib, Uzunquduqqa qarab yo‘l oldilar.

***

Nurali Eraliyev Xo‘jand tumanining “Ko‘rik” qishlog‘ida istiqomat qiladi. Nurali halol, pok dehqon. Shuning uchun hamma uni Nur aka deydi.

O‘riklarni Jumabozorda sotib, ro‘zg‘origa kerakli mahsulotlarni olib qaytar edi.

Shu kuni yon qo‘shnisi Jo‘ra oshpaz bilan uyga qaytayotib, Qoratoyga kelganda, tog‘ bag‘rida bir oz dam olib, tuya, eshaklarni o‘tlatish maqsadida to‘xtadilar.

Jo‘ravoy, bugungi kun ajoyib bo‘ldimi? O‘t-o‘lanlarning hidi anqib turganini qara, - deb xursand bo‘lib so‘radi Nur aka. Ikkovlari bir oz dam olib, suhbatlashib o‘tirishdi.

Endi qaytamiz deb tuyasini yetaklab kelayotib Nur aka ilon ko‘rganday cho‘chib ketdi. “Yo rab” deb qichqirib yuborganini o‘zi ham sezmay qoldi.

- Ha-ha, nima bo‘ldi? - deb so‘radi Jo‘ra oshpaz Nur akadan.

- Beri kel, beri kel, - deb imladi u.

Jo‘ravoy eshagini yetaklab, Nur akaning oldiga keldi.

- Bu nima, ko‘ryapsanmi? — deb jomodonni ko‘rsatdi. Nur aka jomodonni ochib, hang-mang bo‘lib qoldi. Jo‘ravoyga tikilib:

- Pul-ku, voy bu pul-a! — dedi.

Nur aka va Jo‘ravoy jomadonni xurjunga solib, eshakka minib, tuyani yetaklagancha yo‘lga ravona bo‘ldi.

Yo‘lda ketayotib xayollariga sho‘ng‘ib borayotgan Jo‘ravoy: “Bu pul kanal qurayotgan injener qizniki bo‘lmasin tag‘in. Ishchilarning maoshi bo‘lsa-chi”, deya o‘ylay boshladi.

Kechqurun Nur akaning mehmonxonasida Jo‘ra oshpaz, Nur akaning katta o‘g‘li Murod uchalasi pulni nima qilamiz degandek, bir-birlariga tikilib o‘tirardi.

Jimlikni buzib “pulni sanaymiz”, - dedi Murod.

- Olib kel jomodonni, - dedi Jo‘ra oshpaz.

Birovning pulini qanday sanaysizlar, pulga qo‘l tekkizmaylik. Murod o‘g‘lim, sen ertaga Dalvarzinga borasan. Shu kunlarda ishchilar Uzunquduqda to‘g‘on qurishyapti, qishlog‘imizdan ham ancha odamlar ishlayapti. Shularga borib bu voqeani aytasan, - dedi Nur aka.

- Hamqishlog‘imiz Yo‘ldosh akangga bor gapni ayt. U darrov masalani hal qiladi.

Murod ertasiga peshinda Uzunquduqqa yetib keldi. So‘rab-surishtirib hamqishlog‘i Yo‘ldoshni topdi. Hol-ahvol so‘rashib, chekkaroqqa boshladi.

Otam yubordi, - dedi u. — Jo‘ra aka bilan Jumabozordan qayta turib, jomadon topib olibdi, ichi to‘la pul ekan.

- Pul ishchilarning maoshi, injener qiz Tatyana va Vasiliy kelayotib dam olgan joyda jomadonni qoldirib, yo‘qotib qo‘yishgan, - dedi Yo‘ldosh.

- Otam agar pul injener qizniki bo‘lsa, boshlab kelasan dedilar.

Yo‘ldosh aka Murod bilan birga injener qiz Tatyananing oldiga borishdi.

- Suyunchi bering, pul topildi, - dedi Yo‘ldosh.

Tatyana Aleksandrovna suyunganidan Murodni quchoqlab, yuzlaridan o‘pdi. Minnatdorchilik bildirdi. Injener qiz, Vasiliy va Murod uchalasi faytunga minib, yo‘lga tushdilar. Kechqurun “Ko‘rik” qishlog‘iga yetib bordilar. Tatyana jomadonni ochib ko‘rib, pulga ko‘z yugurtirdi.

- Hammasi joyida. Rahmat ota! — dedi u va cho‘kkalab ta’zim qildi. — Chin inson ekansiz. Aytmasangiz meni holim ne kechardi. Ota, endi bizga javob bering,



qaytamiz, yo‘limiz uzoq, - dedi Tatyana va bir pachka pul olib, yarmini Nur akaga uzatdi.

- Yo‘q-yo‘q olmayman, ishchilarga olib boring, sizlar ulug‘ ish qilyapsizlar. Dalvarzin cho‘lini obod qilish uchun kanal quryapsizlar.

- Xafa bo‘laman otajon, suyunchi degan gap bizlarda ham bor, buning aybi yo‘q, olmasangiz bo‘lmaydi.

- Jo‘ravoy, gapiring, biz o‘z mehnatimiz bilan yashaymiz. Tekin pul teshib chiqadi. Men tekin daromaddan hazar qilaman, - dedi Nur aka.

Murod dasturxon yozdi. Bir lagan palovni o‘rtaga qo‘ydi.

Palovni yeb, choyni ichib bo‘lgach, o‘rtada turgan yarim pachka puldan bir chervon Jo‘ra oshpazga, bir chervon o‘ziga oldi (bir chervon — 10 rubl).

- Shu bo‘ladi. Rozi bo‘linglar, - dedi Nur aka. — Kun kech bo‘ldi. Murod o‘g‘lim, sen birga borasan. Mehmonlarni eson-omon joyiga qo‘yib, ertaga qaytib kelasan. Yo‘ldosh akangga salom aytgin.

Mehmonlar rahmat aytib xayrlashdilar. Eng qizig‘i, Nur akani endi mahalladoshlari “Nur chervon” deb atay boshlashdi…

Xo‘jaahmad BOBOMURODOV,
Qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, mehnat faxriysi

Nigoh



ESLAB…

Tumandagi sobiq “Dzerjinskiy” nomli kolxozda jami 112 nafar Ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari bo‘lgan. Afsuski, bugungi kunda ularning birortasi ham oramizda yo‘q.

2002-yilda suratga muhrlangan urush va mehnat faxriysi Miryusuf Mirjumayev ana shunday jasoratli insonlardan biri edi. Ularning mardonavor hayoti, Vatan va xalq yo‘lida qilgan fidokorona xizmatlari hech qachon unutilmaydi.

Bugungi tinch va osoyishta hayot ortida ana shunday avlodning mashaqqatli taqdiri, jasorati va sabri mujassamdir.

Alloh rahmatiga olgan bo‘lsin, oxiratlari obod bo‘lsin.

Sultonboy DEHQONOV

BEKOBODDAN DUNYO MINBARIGA



Bekobodlik fotorassom Sultonboy Dehqonovning “Mo‘l hosil” nomli fotoreportaji xalqaro e’tirofga sazovor bo‘ldi. Ushbu ijod namunasi UNESCOning Koreya Respublikasida nashr etiladigan, Osiyo va Tinch okeani xalqlarining nomoddiy madaniy merosi hamda milliy qadriyatlarini yorituvchi nufuzli ICH Courier jurnalining 2026-yil bosh sonida chop etildi.

Fotoreportajda xalqimizning mehnatsevarligi, qishloq xo‘jaligidagi boy an’analari va mo‘l-ko‘l hayoti ta’sirchan lavha orqali aks ettirilgan. Mazkur yutuq milliy qadriyatlarimizning xalqaro miqyosda keng targ‘ib etilayotganining yana bir yorqin ifodasidir.

Sultonboy Dehqonovni ushbu nufuzli muvaffaqiyat bilan samimiy tabriklaymiz va ijodiy faoliyatida yangi zafarlar tilaymiz.

Akrom MAMADALIYEV

Mavsum mavzusi

MILLAT XARAKTERINI SHAKLLANTIRADIGAN O‘YINLAR – NEGA BOLALAR O‘YIN O‘YNASHI KERAK?

Atrofga qarasangiz, baxtli bolalik uchun hamma narsa bor: o‘yin maydonchalari, xilma-xil to‘garaklar, erta rivojlantirish markazlari, rang-barang kitob va o‘yinchoqlar... Ammo bolalarning aksariyatiga bularning hech biri qiziq emas. Ularning fikri-xayoli gadjetlarda. Maktabga borayotganda, yerosti yo‘llarida, mashinada, kafelarda biz butun vujudi bilan telefon ichiga kirib ketgan bolalarni ko‘rishga odatlanib ham qoldik, hatto. Vaholanki, bizning bolaligimizda ikkita bola to‘plangan joyda, albatta, o‘yin bo‘lar, keyin yana bolalar qo‘shilar va shu tariqa kechgacha qanday vaqt o‘tganini sezmasdik.

Hozirgi davr bilan qiyoslasam, bolaligimizda (90-yillar) bir tuzuk-quruq o‘yinchoq ham bo‘lmagan. Shuning uchun daraxt shohi miltiq, loy – plastilin, barglar – pul, ba’zan “Xola-xola” o‘ynaganda esa masalliq vazifasini o‘tagan. Darvoqe, milliy o‘yinlardan “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Lanka”, “Arqon tortish”, “Besh tosh”, “Kim oladi”larni eslayman. O‘yin o‘ynashdan oldin bir-biridan arazlab turgan yoki yangi qo‘shilib, o‘zini chetga tortib turganlar ham yaqin bo‘lib ketardi. O‘yinlar bizga o‘zaro til topishish, bir-birimizning xarakterimiz va o‘z jismoniy imkoniyatlarimizni o‘rganishga yordam bergan. Eng asosiy foydasi esa ota-onamiz bizni, ya’ni bolalarni “nima bilan band qilish” haqida o‘ylamagan. Umuman, hozirgi bolalarning hayotidan deyarli butkul chiqib ketgan va befoyda mashg‘ulot sifatida qaraladigan o‘yinlarning tarixiy, ijtimoiy, tarbiyaviy ahamiyati yuqori bo‘lgan.



O‘yinlarning tarixiy ahamiyati

Qadimgi davrlarda o‘yinlar hozirgidan ancha kengroq vazifalarni bajargan, - deydi tarixchi Nodir Safarov. – Bu tarbiya, harbiy ta’lim, siyosat va diniy rituallarni o‘zida birlashtirgan jiddiy ijtimoiy institut edi. Agar o‘sha davrda o‘yinlar bo‘lmaganida, insoniyatning yashab qolishi va madaniy rivojlanishi so‘roq ostida qolardi.

Bu tizimning zamirida, eng avvalo, kundalik hayot va urushga doimiy jangovar tayyorgarlik vazifasi yotgan. Qadimda o‘yinlarni faqat bolalar emas, balki ko‘proq kattalar o‘ynagan. Kurash, kamonchilik, ot chopish yoki nayza uloqtirish kabi bahslar erkaklar uchun jismoniy tonusni ushlab turishning asosiy vositasi bo‘lgan. To‘g‘rirog‘i, urush mashqlari bilan o‘yin o‘rtasidagi chegara deyarli sezilmagan.

Shu sababli ham, kattalar o‘rtasidagi musobaqalar doim siyosiy xarakterga va ijtimoiy mavqeni belgilash kuchiga ega bo‘lgan. Bu bahslarda g‘olib chiqish jamiyatda katta obro‘ va e’tirof keltirgan, shaxsning yetakchilik fazilatlarini isbotlagan. Ayollar esa mavsumiy bayramlar va marosimlarda ijtimoiy aloqalarni mustahkamlovchi ritual o‘yinlar, qo‘shiq va raqslar orqali ishtirok etishgan. O‘yin butun bir jamoani jipslashtiruvchi kuch vazifasini bajargan.

Bolalarga kelsak, o‘sha davr o‘yinlari muhim tarbiyaviy rolga ega bo‘lganini ko‘rish mumkin. Qadimgi bolalar virtual olamda emas, real hayotda, kundalik yumushlar va hal qilinadigan vazifalar ichida ulg‘aygan. Bola o‘yin jarayonidayoq o‘zining kelajakdagi ijtimoiy rolini — ovchi, jangchi, hunarmand yoki uy bekasi bo‘lish ko‘nikmalarini o‘zlashtirgan. Shu bilan birga, jamoada ishlash, intizom va kattalarga hurmat kabi xulq-atvor qoidalari ham aynan shu o‘yinlar vositasida singdirilgan.

Tarixan o‘yinlar va xalqlar xarakteri o‘rtasidagi bog‘liqlik ikki tomonlama bo‘lgan: bir tomondan, o‘yinlar jamiyatning turmush tarzi, qadriyatlari va xarakteri ta’sirida shakllangan bo‘lsa, ikkinchi tomondan – o‘yinlarning o‘zi ham vaqt o‘tishi bilan odamlarda ma’lum bir fazilatlarni tarbiyalagan va mustahkamlagan.

Xalqning xarakteri va turmush tarzi, odatda, oldinroq paydo bo‘lgan. Masalan, Markaziy Osiyoning ko‘chmanchi xalqlarida otliq yurish, ov qilish, chidamlilik va harbiy mahorat muhim ahamiyatga ega bo‘lgani uchun kuch, chaqqonlik va otni boshqarish mahorati bilan bog‘liq o‘yinlar hamda musobaqalar yuzaga kelgan. Ko‘pkari kabi an’anaviy o‘yinlar chorvachilik va harakatchanlikka asoslangan jamiyat turmush tarzini aks ettirgan. O‘troq dehqonchilik sivilizatsiyalarida esa ko‘proq strategik va intellektual o‘yinlar rivojlangan. Masalan, shaxmat hisob-kitob, boshqaruv va davlatchilik tafakkuri qadrlangan muhitda paydo bo‘lgan.

- Milliy o‘yinlarimiz bolaning qon-qoniga o‘zbekona qadriyatlarni, urf-odat va mentalitetni singdiradi. Bola arqon tortarkan, kurasharkan yoki loydan nimadir yasarkan, o‘zligini anglaydi, — deydi psixolog Akobir Abdullayev.

Kompyuter va virtual o‘yinlarda esa milliylik yo‘q. Ular bolani hech qanday vatan yoki madaniyatga bog‘lanmagan global ijtimoiy mahsulotga aylantirib boradi. Bu esa bora-bora bizning asrlar davomida shakllangan mentalitetimiz yo‘qolishiga va bolalarimiz ongida biz uchun butkul yot bo‘lgan tushunchalar paydo bo‘lishiga zamin yaratadi.

“Qizim 5 ta to‘garakka boradi, yozda yana til o‘rganishga bermoqchiman”

Biz farzandlarimizning bizdan ko‘ra baxtliroq bo‘lishini istaymiz. Ammo buni qanday amalga oshirishni bilmaymiz. Shuning uchun ko‘p hollarda marketing qurboniga aylanibmi yoki trendlar ortidan quvibmi, bolamizni turli to‘garaklar-u, til markazlariga qatnash bilan band qilish – eng to‘g‘ri yechim deb o‘ylaymiz. Biroq psixolog Akobir Abdullayevning bu boradagi fikrlari biroz boshqacha:

- Inson rivojlanarkan, har bir bosqichda yetakchi faoliyat bo‘ladi. Bolalik yoshida bu – o‘yin. O‘smirlikda – o‘yin va o‘qish, o‘spirinlikda – o‘qish va mehnat. Bolani faqat kitob o‘qish yoki to‘garaklar bilan band qilish uning erta rivojlanishiga yordam berishi mumkin, lekin kun tartibidan o‘yinni butkul olib tashlash xato. O‘yinlarsiz bolaning bolaligi qolmaydi, bolalik baxti yo‘qoladi.

Ekspertning ta’kidlashicha, ayniqsa, o‘g‘il bolalarni faqat uyda kitob o‘qish va to‘garaklarga borib-kelish bilan cheklab qo‘ymaslik kerak. Aks holda ularda ijtimoiylashuv pasayib ketadi, jamoaga qo‘shilishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bola tinimsiz ilm olsa-yu, ammo bu bilimlarni ishlatadigan, hayotga tatbiq qiladigan jonli ijtimoiy muhitdan (ya’ni tengdoshlari davrasidan) uzilib qolsa, bu mutlaqo teskari effekt berishi mumkin.

Yaqinda boshimdan o‘tgan bir voqea bu fikrni yaqqol isbotladi. 11 yashar o‘g‘lim karate mashg‘ulotida yiqilib, oyog‘i lat yedi va umrida birinchi marta gipsda yurish tajribasini boshidan o‘tkazdi. Ikki hafta davomida uyda, to‘rt devor ichida o‘tirish uning ruhiyatiga qanchalik yomon ta’sir qilganini ona sifatida juda yaxshi his qildim. Nihoyat gips yechilgan kuni unga: “Xohlasang, biroz ko‘chaga chiqib, bolalar bilan o‘ynab kel”, dedim. Bir soatgina ko‘chada yugurib kelgan o‘g‘limni ko‘rib tanimay qoldim: avvalgi tushkunlikdan asar ham qolmagandi. Yuziga qon yugurgan, ko‘zlari chaqnab turibdi, og‘zi qulog‘ida. Shu oddiy voqeaning o‘zi tengdoshlar bilan ochiq havoda o‘ynash bola uchun qanchalik hayotiy zaruriyatligini ko‘rsatib berdi.

Ochiq havo va jamoaviy sport: kelajakdagi karyera poydevori



Hozir ko‘chaga chiqqan bolalar ham ko‘pincha yonma-yon o‘tirib, yana o‘sha telefonga tikilib o‘tirganiga guvoh bo‘lamiz. Vaholanki, milliy va jamoaviy o‘yinlar bolaning bevosita intellektual va psixik rivojlanishiga xizmat qiladi. Mashhur fransuz psixologi Jan Piaje aytganidek, boladagi harakatchanlik uning intellektual rivojlanishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ijobiy ta’sir qiladi. Jonli o‘yinlar bolada qaror qabul qilish va liderlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Eng qizig‘i, ko‘p ota-onalar: “Bola ko‘chaga chiqsa, kim bilandir mushtlashib, bezori bo‘lib ketadi”, deb qo‘rqishadi. Psixologik tajribalar esa buning tamomila aksini ko‘rsatmoqda. Agar bola ichidagi tabiiy agressiya va energiyani sog‘lom yo‘l bilan – jismoniy o‘yinlar, yugurish, baqirish, arg‘imchoq uchish orqali chiqarib tashlamasa, bu energiya ichga yutiladi, yig‘iladi va vaqti kelib nosog‘lom, xavfli agressiyaga aylanadi. Xuddi shu harakatsizlik boladagi salbiy impulslarni oshirib, pirovardida bir-biriga real zarar yetkazish holatlarigacha olib bormoqda.

Bundan tashqari, virtual kompyuter o‘yinlari asosan individuallikka, ya’ni yolg‘izlikka yo‘naltirilgan. Bola ekran qarshisida bitta o‘zi o‘tiradi – unda na muloqot ko‘nikmasi, na boshqa odamga nisbatan empatiya (hamdardlik) shakllanadi. Bizning milliy va jamoaviy o‘yinlarimiz esa o‘zaro kelishish va bir-biriga yordam berish asosiga qurilgan. Voleybol yoki futbol kabi jamoaviy o‘yinlarning individual o‘yinlardan ustun jihati ham shunda – ular bolada jamoaga moslashish, o‘z fikrini yetkaza olish va boshqalarni eshitish qobiliyatini shakllantiradi. Bu ko‘nikmalar bolaning kelajakdagi professional hayotida suv va havodek zarur. Bugungi kunda yirik kompaniyalar ishga qabul qilishda nomzodning faqat diplomiga emas, balki “soft skills”, ya’ni jamoada ishlay olish, kirishimlilik va xushmuomalalik qobiliyatiga urg‘u bermoqda. Jamoaviy o‘yinlar esa aynan shu xususiyatlarni bolalikdanoq bepul shakllantirib beruvchi eng zo‘r maktabdir. Masalan, “Arqon tortish”-da jamoa “bir organizm” bo‘lib harakat qilmasa, raqibni yenga olmaydi. Yoki “Oq terakmi, ko‘k terak” o‘yinida raqib zanjirni uzib ketmasligi uchun jamoadoshlar bir-birining qo‘lini mahkam ushlashi shart. Bu amalda korporativ birdamlikni o‘rgatadi.

Ilm-fan nima deydi?

Bu gaplar shunchaki quruq tavsiyalar emas, ularning zamirida jiddiy tibbiy va psixologik tadqiqotlar yotibdi.

Tibbiy fakt: 2019-yilda AQSHda o‘tkazilgan yirik ilmiy tadqiqot (Dose–Response Relationship of Outdoor Exposure and Myopia Indicators) bolalarning ko‘z xiralashishi (miopiya) va ularning ochiq havoda o‘tkazadigan vaqti o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqlik borligini isbotladi. Kuniga kamida 2 soat vaqtini ko‘chada, ochiq havoda o‘tkazadigan bolalarda ko‘z ojizligi yuzaga kelish xavfi naqd 50% ga kamayar ekan. Sababi – ochiq havoda miya kislorodga to‘yinadi va tabiiy yorug‘lik ko‘z mushaklarini rivojlantiradi.

AQSHdagi Toledo universiteti (University of Toledo) olimlari “O‘yinchoqlar miqdorining bolalar o‘yini sifatiga ta’siri” mavzusida qiziq tadqiqot o‘tkazishdi. Ular kichik yoshdagi bolalarni ikki xil sharoitda kuzatishdi: bir guruhga 16 ta, ikkinchi guruhga esa bor-yo‘g‘i 4 ta o‘yinchoq berilgan. Natija hammani hayratda qoldirdi: oldida atigi 4 ta predmeti bor bolalar har bir buyum bilan uch barobar uzoqroq va sifatliroq o‘ynashgan. Tanlov kamligidan bolaning miyasi fantaziyani ishga solishga majbur bo‘lgan. Oddiygina yog‘och kubik o‘yin davomida goh telefonga, goh mashinaga, goh samolyotga aylangan. Bolalar buyumlarning yashirin imkoniyatlarini kashf qilishgan. Xonasi 16 ta tayyor o‘yinchoqqa to‘la bolalar esa bir joyda chalg‘imay o‘tirolmagan. Ular u o‘yinchoqni bunisiga almashtirib, tez charchashgan va diqqatni jamlash qobiliyati sustlashgan.

Bu g‘oyani Yevropa tajribasi ham tasdiqlaydi. 1990-yillarda Germaniyada “O‘yinchoqsiz bog‘cha” (Der Spielzeugfreie Kindergarten) nomli mashhur tajriba o‘tkazilgan. Bir nechta bog‘chalardan 3 oyga barcha tayyor plastik o‘yinchoqlar olib tashlanib, bolalarga faqat oddiy stol, stul, quti va adyollar qoldirilgan. Dastlabki kunlardagi karaxtlikdan so‘ng, bolalarning kreativligi keskin oshgan: ular stullardan poyezdlar yasab, murakkab rolli syujetlarni o‘ylab topishgan. Tajriba yakunida bu bolalarning mustaqilligi va vaziyatlarga moslashuvchanligi tengdoshlaridan ancha yuqorilab ketgan.

Biz – ota-onalar farzandimizning porloq kelajagini ta’minlash ilinjida uni o‘yinchoqlar, cheksiz g‘amxo‘rlik, to‘garaklar va gadjetlar bilan o‘rab tashlashga urinamiz, aslida esa unga shunchaki biroz zerikish imkonini berish kifoya.

Bolalarimizni gadjetlardan butkul uzib qo‘yishning iloji yo‘q, balki buning keragi ham yo‘qdir. Ammo ularning kun tartibiga oddiy jonli o‘yinlar, toza havo va tengdoshlari bilan muloqotni qaytarish – kuch va mablag‘ talab qilmaydigan, lekin juda muhim ish.

Visola QARSHIBOYEVA,
jurnalist

Mulohaza

O‘ZBEK KITOB BOZORINING KO‘RINMAS YARASI: KO‘R-KO‘RONA MUQOVALAR

“Kitobga muqovasiga qarab baho berma” degan naql bugungi raqamli va vizual madaniyat hukmron bo‘lgan davrda o‘z kuchini deyarli yo‘qotib ulgurdi. Zamonaviy bozorda kitob nafaqat ma’naviy xazina, balki raqobatbardosh mahsulot hamdir. Afsuski, O‘zbekiston kitob bozorida mazmunan boy, ammo vizual jihatdan “oqsoq” kitoblar muammosi ortsa ortyaptiki kamayayotgani yo‘q.

Rasta va javonlarda tizilgan kitoblarning aksariyati shunday muqovalar bilan bezatilganki, ular o‘quvchini jalb qilish o‘rniga uning ko‘ziga sanchiladi. Men bu yerda muammoni faqat estetik nuqson sifatida ko‘rmayman. Bu tizimli, ko‘p yillik inqirozning simptomiga o‘xshab ko‘rinadi.


Muqovalarimizda takrorlanuvchi “sindrom”larning ba’zilarini ko‘rsatish mumkin: Birinchidan, fon va matn munosabatining buzilishi: yorqin, keskin to‘yingan ranglar ustiga oq yoki sariq shrift. O‘qish ham qiyin, ko‘z ham charchaydi. Ikkinchidan, “Googledan olingan rasm” sindromi: litsenziyasiz, kontekstsiz, ko‘pincha hajmi va sifati past rasmlar muqovaga joylanadi. Bunga kinodan kadrlar joylashni va AI yordamida chala ishlangan ishlarni ham qo‘shish mumkin. Uchinchidan, kompozitsion bo‘sh joyni tushunmaslik: har bir santimetr maydonni to‘ldirish ishtiyoqi, har bir burchakni detallarga to‘ldirish. Bu esa muqovaning nafasini bo‘g‘ib qo‘yadi. To‘rtinchidan, tipografik tartibsizlik: bitta muqovada uch-to‘rt xil shrift, turli o‘lchamlar, kerning va leading haqida tasavvur yo‘qligi.

Aksar nashriyotlar dizaynni asosiy ijodiy jarayon deb emas, “texnik xizmat” sifatida qabul qilishi achinarli. Bunday qaralgach “shu yangamga shu pochcham” ko‘rinishidagi muqovachilar yetishib chiqishi tabiiy. Ya’ni talab va standartlarga, qoliplarga mos dizaynerlar shakllanishiga olib keladi bunday qarash.

Yana aksar dizaynerlarda ham juda katta kamchilik bor, istalgan kitob mazmuni bilan tanish odam bu muammoga yo‘l qo‘ygan muqova dizayneri ishini darrov kulgiga ola biladi. Bu dizaynerning kitobni o‘qish u yoqda tursin, hattoki mazmuni bilan ham qisman tanish bo‘lmasdan muqova qilishidir. Kitob g‘oyasi bilan tanish bo‘lmagach uning mohiyatini vizual metafora orqali ifodalash o‘rniga, umumiy shablonlarga tayanib qolishadi va yana bitta inkubatordan chiqqan “jo‘ja” tayyor.

Lekin savdo sohasida “3 soniya qoidasi” mavjud. Xaridor javonlar bo‘ylab yurarkan yoki ijtimoiy tarmoqlarda kitoblarni tomosha qilarkan, e’tiborini jalb qilish uchun unga bor-yo‘g‘i bir necha soniya vaqt ajratadi. Bu miyada avtomatik kechadi. Shu soniyalar ichida muqova kitob haqida vizual xabar beradi. Agar muqova kitobning ichki dunyosini aks ettirmasa, xaridor mahsulot sifatiga shubha bilan qaraydi. Yomon dizayn esa yomon (yoki savodsiz) matnning belgisi sifatida qabul qilinishi mumkin.

Muqovaning sifati kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bilan ham bevosita bog‘liq. O‘qishga endigina qadam qo‘yayotgan yosh o‘quvchi uchun kitob bu avvalo obyekt. U ushlanadigan, ko‘riladigan, hidlanadigan, javonda saqlanadigan narsa. Kitob birinchi navbatda estetik tajriba, undan keyin intellektual tajribaga aylanadi.



Holbuki bolalar uchun adabiyotda muqova va illyustratsiya matn bilan teng huquqli til. Bolalar kitoblarida illyustratsiya va dizayn sifatining pastligi esa keyinchalik kitobxonlik odatining shakllanmasligi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq.

Ayniqsa, bugungi yosh avlod (Gen Z va Alfa) uchun kitob nafaqat bilim olish vositasi, balki ijtimoiy aksessuarga ham aylanib ulgurdi. Biz yashab turgan dunyoda odamlar (ayniqsa, yoshlar) hayotining har bir lahzasini video yoki suratga olib, ijtimoiy tarmoqlarga joylashni xohlashadi. Ular shu orqali jamiyatda mavjud ekanini yaxshiroq his qiladi deyishadi olimlar.

Albatta, bu jarayondan kitoblar ham chetda qolmaydi. O‘qiyotgan, sotib olgan kitoblarini ham ayni shunday ulashishadi. Agar kitob muqovasi zamonaviy, estetik va “cool” ko‘rinmasa, uni o‘ziga xos “targ‘ibot vositasi” sifatida ishlatish imkoniyati o‘z-o‘zidan yo‘qoladi. Chunki bunday kitoblarni yoki ulashishmaydi yoki ulashishsa ham yuqorida aytganim “3 soniya qoidasi” ishlamaydi va u keng yoyilmaydi. Bu esa to‘g‘ridan to‘g‘ri daromadga ta’sir qiladi.

To‘g‘ri, muqova va sotuvning bog‘liqligi haqida o‘zbek kitob bozorida hech qanday tadqiqotlar qilinmagan. Lekin xalqaro maydonda bu ishlar allaqachon o‘z isbotini topib bo‘lgan. “Nielsen Book Research” ma’lumotlariga ko‘ra, kitob xaridorlarining 70 foizdan ortig‘i do‘konda kitobni avval muqovasi orqali tanlab oladi. “Book Industry Study Group” tadqiqotlari esa bir xil nomdagi ikki kitobning yoqimli muqovaga egasi sotuvda o‘rtacha 20-30 foiz ustunligini isbotlagan.

O‘zbek kitob bozorida bu raqamlar yanada kattaroq bo‘lishi mumkin. Chunki kitobxonlik madaniyati hali u darajada keng ommalashib ulgurmagan, ya’ni o‘quvchi kitob sotib olishga qaror qilishida tasodifiy vizual impuls kuchli rol o‘ynaydi. Yana bunga onlayn savdodagi muammo ham qo‘shiladi. Instagram, Telegram kanallar va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda kitob tavsiya qilinganda uni varaqlab o‘qib ko‘rish imkoni bo‘lmaydi va xaridor muqovaning rasmiga qarab xulosa chiqaradi.

Kitob sohasida saviyali dizaynerlarning yetishmovchiligi kitobni “eski, zerikarli va qiziqarsiz” mahsulot sifatida ko‘rsatib, vizual xabarga ko‘proq e’tibor qaratadigan Gen Z va Alfalarning kitobga bo‘lgan intilishini ham pasaytiradi. Ko‘ryapsizmi, muammo aslida qanchalik katta va muhim? U daromadga ham, umumiy kitobxonlikka ham ta’sir qila oladi.

Xo‘sh, bu muammoning ildizi qayerda? Albatta, bu holat tasodifiy emas. Aytaylik, oliy ta’lim tizimida kitob grafik dizayni alohida yo‘nalish sifatida o‘qitilmaydi. Toshkent davlat san’at va dizayn institutida grafik dizayn o‘qitilsa-da, dastur asosan reklama, brending yo‘nalishlari ustiga qurilgan. Yoki boshqa biror mustaqil o‘quv kurslari, ta’lim maskanlarida ham kitob muqovasiga alohida urg‘u beradigan joyni uchratmaganman.

Juda kuchli grafik dizayner tanishlarim bor. Xizmatlaridan O‘zbekistonning eng mashhur, old qatordagi kishilari foydalanadi. Ammo o‘zi o‘qib ko‘rgan biror kitobga muqova qilishni aytsangiz doimiy qilib yurgan ishlaridan ancha past va kitob bozorida zada bo‘lgan “shablon”imizday narsa chiqarib beradi. Men buni sinab ham ko‘rdim.

Xo‘sh, nega unaqa? Negaki kitob muqovasini qilish bu alohida kasb. Bu kasb uchun kuchli dizayner bo‘lishning o‘zi yetmaydi. Bu yetishmovchilik esa bozorda allaqachonlardan aksini ko‘rsatib bo‘lgan. Chunki kitob tipografiyasi, muqova kompozitsiyasi, harfshunosligi (type design) kabi sohalar muhim jihatlarni mustaqil, chuqur o‘rganishni talab qiluvchi fanlar sifatida hech bir o‘quv dasturidan tizimli o‘rin egallamagan va o‘rgatilmaydi.

Albatta, o‘zbek kitob bozorida ham yaxshi muqova dizaynerlari yo‘q emas. Lekin aholi, chiqarilayotgan kitoblar va nashriyotlar soniga nisbatan ular nihoyatda kamchilik. Buni 7-8 ta nashriyot bir dizayner bilan ishlashi, uni haftalab kutishidan yoki ba’zi nashriyotlarning Turkiya, Angliya, amerikalik muqova dizaynerlari xizmatlaridan foydalanayotganidan bilish qiyin emas.

Albatta, bu muammo hamma soha kesimida qaralganda unchalik katta va muhim emasdek ko‘rinadi. Ammo asosiy mavzu kitob bo‘lganida eng asosiy 3-4 muammodan biri sifatida ulkan cho‘qidek bo‘y ko‘rsatishi ayni haqiqat. Shuning uchun bu fikrlarni o‘ta shaxsiy mulohazalarim sifatida qabul qilishingizni so‘rardim aziz dizayner va nashriyot vakillari.

Men bu sohaning yanada rivojlanishini, o‘quvchi (xaridor) talabining yanada jonlanishini istayman. Kitobxon hamjamiyatlari, bukblogerlar, tanqidchilar kitob muqovasini ham baholash mezoniga kiritsa, bu nashriyotlarga signal beradi. “Bu kitobning muqovasi yaxshi” yoki “Bu muqova kitob mohiyatini umuman ochib bermagan” degan xulosalar aytilsa yomon bo‘lmasdi. Bu esa professional sohani rivojlantiruvchi ijtimoiy bosim yaratadi va o‘z ustlarida ishlashga majbur etadi.

O‘zbekiston kitob bozoridagi dizayn tanqisligi bu shunchaki estetik muammo emas. Agar biz kitobxonlikni haqiqatan ham ommalashtirmoqchi, ham yaxshi daromad topadigan biznes yo‘nalishiga aylantirmoqchi bo‘lsak, kitobning yuzi bo‘lgan muqovaga jiddiy e’tibor qaratishimiz, bu sohani professional kadrlarni tayyorlash orqali rivojlantirishimiz va dizaynga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirishimiz shart.

Ha, kitob bu ma’lumot, lekin ayni zamonda u chiroyli qadoqlangan bo‘lsagina, jamiyatda yanada tezroq va kengroq tarqaladi.

ALEKSANDR KUPRIN — “OLESYA”

Bu kitob haqidagi mulohazalarimni, avvalo, muallif uslubi va tarjima darajasi haqidagi fikrim bilan boshlamoqchiman. Ayni paytda yangi tarjima qilinayotgan kitoblarning aksarida mavzusi yoki matni biroz tabiatdan, inson tuyg‘ularidan uzoqdek yoki sun’iydek tuyiladi. O‘qiysan, yaxshi asar. Bu seziladi. Ammo nimadir kamdek, yetishmayotgandek bo‘laveradi. Ana shu muammoga Aleksandr Kuprinning “Olesya” asarida duch kelmadim.

Bu, albatta, birinchidan, yozuvchining naqadar tabiat bilan uyg‘un va his-tuyg‘uga boy asar yozgani bilan bog‘liq. Ikkinchidan esa matn nihoyatda o‘zbekchalashganki, tuyg‘u va tasvirlar o‘zbek kitobxonining yurak-yuragiga yetib boradi. Tarjimon va muharrirga tasanno! Yuqorida aytganim o‘sha, yetishmayotgandek tuyilgan narsa bu asarda maromida. Keyin o‘ylab qoldim, balki bu inson qo‘l mehnatining taftimidi? Odam ya’ni tarjimon yuragidan chiqqan haroratdir? Nima demoqchi ekanimni tushundingiz a?

Fransuzlar aytganidek “o‘z qo‘ylarimizga qaytsak”, ya’ni endi kitob haqida gaplashsak. “Olesya” bir qarashda oddiy sevgi hikoyasidek ko‘rinadi. Ammo asar ichiga chuqurroq kirganingiz sari va ba’zi detallarni ramziy deb qarasangiz bu oddiy muhabbat emasdek go‘yo. Menimcha, bu asar tabiat va sivilizatsiya, erkinlik va jamiyat, sof qalb va “madaniyatli” inson o‘rtasidagi fojiaviy to‘qnashuv haqida yozilgan.

Asar bosh qahramoni Timofeyevich olis o‘rmonlardan biriga yuboriladi. U yerda odamlar tomonidan “jodugar” tamg‘asi bosilgan Olesya ismli qiz bilan tanishadi. Olesya juda noodatiy obraz. U kitobiy bilimlarga ega emas, jamiyat qoidalariga ham uncha tushunmaydi. Chunki u jamiyat qoliplarida o‘smagan. Yolg‘on gapirmaydi, ikkiyuzlamachilik nimaligini bilmaydi, sevsa butun vujudi bilan sevadi. Kuprin bu obrazni shunchalik jonli yaratganki, kitobni o‘qiy turib siz ham Ivandek unga maftun bo‘lib qolasiz.

Meni asarda eng ta’sirlantirgan va biroz qayg‘uga solgan narsa Ivan obrazining ichki zaifligi bo‘ldi. U Olesyani sevadi, uni deb aqlidan ayriladi, unga telbalarcha talpinadi. Lekin baribir jamiyatdan, odamlarning fikridan, “normal hayot” degan tushunchadan uzilib ketolmaydi. Qiz esa nihoyatda jasur. U sevgisi uchun borini ham berishga tayyor.

Kitobni shunchaki, yuzaki o‘qisangiz romatik sevgi qissasi. Ha, bundan ham maza qilasiz. Lekin yanada teranroq va chuqurroq qarasangiz, Kuprin aslida jamiyat va uning muammolari haqida gapirganini sezasiz. Olesyani fojiaga kim olib keldi? Yo‘q, bu sevgi emas. Bu fojiaviylikni qishloq odamlari, ya’ni “jamiyat” keltirib chiqardi. Ular o‘zlaridan farq qilgan kimsani qabul qila olmadi. Erkin, ularning qoliplariga sig‘maydigan o‘zgacha odamni ko‘rdi-yu, yo‘q qilishga urindi.

Bu asarni o‘qib bo‘lgach, hamma kitobxon shu savol bilan yuzlashsa kerak, nazarimda. Aslida yovvoyi kim edi? Jamiyat “jodugar” deb chetlatgan Olesyami yoki his-tuyg‘ularini qo‘rquv va qoidalarga almashtirib yuborgan odamlar?

“Olesya” katta hajmli asar emas. Uni qisqa vaqt ichida o‘qib tugatish mumkin. Balki ikki-uch kun ham sarflamassiz. Lekin siz haqiqiy muhabbat qanday ko‘rinishini oshiqlarning tuyg‘ulari bilan qo‘shib his qilmoqchi bo‘lsangiz “Olesya”ni o‘qing. Agar jamiyat erkin va ularga o‘xshamaydigan odamlarga qanday reaksiya qilishini bilmoqchi bo‘lsangiz “Olesya”ni o‘qing. Agar shunchaki go‘zal, qalbingizni to‘ldiradigan adabiyot namunasidan totib ko‘rmoqchi bo‘lsangiz ham “Olesya”ni o‘qishingizni maslahat berolaman. Yoqimli mutolaa.

Muhiddin NIDO

Hikoya

NONPALOV

Bolaligimizdan yoshi ulug‘lardan dunyodagi eng aziz ne’matlardan biri - bu non ekanligi, uning qadr-qimmati, urush yillarida odamlarning qanchalik darajada nonga zor qolganlari, qiyin ahvolda bo‘lishsa-da, bir burda nonni bo‘lishib yeganlari haqida ko‘p eshitganmiz. Qolaversa, xalqimizdan qolgan ajib bir naql bor: “Nonning ushog‘i ham non” deydilar...

Mening hayotimda ham non bilan bog‘liq bo‘lgan shirin va achchiq xotiralar muhrlanib qolgan. Dadam vafot etganlarida onam bechora besh nafar farzandlari bilan beva qolganlar. To‘rtta opam va men. O‘sha paytlarda onamga ko‘p farzandlilar qatori yoshlari nafaqa yoshiga yetmagan bo‘lsa ham davlatimizning tegishli qaror va imtiyozlariga ko‘ra, taxminan 100-120 ming atrofida pensiya tayinlangan edi. Hammamiz faqatgina onamning pensiya puli evaziga kun kechirardik. O‘zingizdan qolar gap yo‘q. Besh nafar farzandning qornini to‘ydirish, kiyintirish, maktabda o‘qitish, qarindosh-urug‘chilikni davom ettirish, to‘y-marakalarda ishtirok etish... hamma-hammasi pul bilan bog‘liq bo‘lgan...



Shunday qilib, o‘sha paytlarda onam bizga deyarli har kuni palov pishirib berardi. Ha, men uni haqiqiy o‘zbekona palov deyman. Har kuni yesak ham sirayam ko‘ngilga urmasdi. Yegan sari yegimiz kelardi. Ona mehri bilan yo‘g‘rilgan, qalb qo‘rida butun vujudini bahshida etib tayyorlangan onamning nonpalovi. Bu taomni ko‘pchilik bilishadi. Yeb ko‘rishmagan bo‘lsalar-da, eshitishgan. Judayam ajoyib, shirin bo‘ladi. Aslini aytganda, onaning qo‘li tekkan har qanday taom mazali bo‘ladi. Lekin nonpalovning ta’mi o‘zgacha. Hozirgi yoshlar buni bilishmasa kerak, deb o‘ylayman. Chunki tayyor taomlarni sotib olib yeyishga o‘rganishayapti. Mayli, bu ham qaysidir ma’noda yaxshidir. Vaqtni tejaydi, rejalarning o‘z vaqtida amalga oshishiga yordam berar. Ammo yosh avlod ona mehri bilan tayyorlangan o‘zbek milliy taomlarini ko‘proq iste’mol qilsalar, menimcha, maqsadga muvofiq bo‘larmidi?...

Mana oradan yigirma ikki yil o‘tdi. Haligacha o‘sha nonpalovning mazasi og‘zimdan ketmaydi. Har zamonda bir onamga o‘sha paytdagi nonpalovni eslataman. Miyig‘ida kulib qo‘yadilar-u, chuqur xo‘rsinadilar...

Uni tayyorlash qiyin emas. Ko‘p vaqtingiz ketmaydi. Asosiysi, tabiiy. Ishonchli. Siz bir safar mening maslahatimga rioya qilib tayyorlab ko‘ring-da. Haqiqatan ham nonpalovni qanchalik mazali ekanligini bilasiz. Onangiz tayyorlasa, yanayam shirin bo‘ladi.

Mirzabek SHERBEKOV

Yosh qalamkash

EKOLOGIK MAJLIS



Moziy sirlarini bag‘rida saqlagan Yer kurrasida g‘ayrioddiy bir majlis bo‘lib o‘tdi. Bu yig‘in ishtirokchilari insonlar emas, balki hayotning to‘rt tayanchi — Atmosfera, Litosfera, Gidrosfera va Biosfera edi.

— Meni Litosfera deb atashadi, — deya og‘ir xo‘rsinib so‘z boshladi Yer qobig‘i. — Bag‘rimdagi tog‘lar, ma’danlar va bepoyon tuproq qatlamlari mening boyligimdir. Afsuski, bugun insoniyat meni beshafqatlarcha o‘yib, boyliklarimni cheksiz ravishda qazib olmoqda. Natijada vujudimda bitmas-tuganmas jarohatlar paydo bo‘lyapti. Nahotki, hamma joyda ahvol shunday bo‘lsa?

— Menda ham vaziyat yaxshi emas, — dedi Biosfera mungli ovozda. — Yashil o‘pkam hisoblangan o‘rmonlar va daraxtlar ayovsiz kesilmoqda. O‘simliklar dunyosiga yetkazilayotgan zarar kundan kunga ortib bormoqda. Eng achinarlisi, kesilgan daraxtlar o‘rniga yangilarini ekishga hamma ham e’tibor berayotgani yo‘q. Biroq meni taskinlantiradigan jihat shuki, tabiatni asrash uchun kurashayotgan insonlar ham yo‘q emas.

— To‘g‘ri aytyapsan, — dedi Gidrosfera. — Insonlar daryo, ko‘l va dengizlarni chiqindixonaga aylantirib yuborishmoqda. Bu esa nafaqat suvning musaffoligiga, balki uning bag‘ridagi butun hayotga xavf tug‘dirmoqda. Baliqlar va boshqa suv jonzotlari tobora kamayib bormoqda.

— Mening ahvolim ham maqtangulik emas, — dedi Atmosfera achchiq ohangda. — Har kuni minglab zavod va fabrikalar, millionlab transport vositalari havoga zararli gazlar chiqaradi. Buning ustiga urushlar, portlashlar va yong‘inlar ham musaffo havoni ifloslantirmoqda. Insoniyat o‘z qo‘li bilan nafas olayotgan havosini zaharlab bormoqda.

Shunda Litosfera qat’iy ohangda dedi:

— Bu holat davom etaversa, oqibatlari og‘ir bo‘ladi. Kelinglar, Odamzod bilan gaplashib ko‘raylik. Balki u tabiatning faryodini eshitar.

— Men boraman, — dedi Atmosfera. — Balki u meni tinglar.

Atmosfera uzoq yo‘l bosib, Odamzod huzuriga yetib bordi va tabiatning dardlarini birma-bir bayon qildi. Ammo manfaat va boylik ortidan quvgan Odamzod uning so‘zlariga quloq solmadi.

Atmosfera tushkun holda ortga qaytdi.

— Nima bo‘ldi? — so‘radi Biosfera xavotir bilan.

— Odamzod bizni eshitishni istamadi, — dedi Atmosfera.

Shunda to‘rt unsur chuqur o‘yga toldi. Ular insoniyatga tabiat qonunlarini eslatishga qaror qildi.

Ko‘p o‘tmay, dunyoning turli burchaklarida ekologik muammolar kuchaya boshladi. Atmosfera anomal issiqlar, qurg‘oqchilik va kuchli yog‘ingarchiliklar bilan ogohlantirdi. Gidrosfera ayrim hududlarda suv toshqinlarini, boshqa joylarda esa suv tanqisligini yuzaga keltirdi. Litosfera zilzilalar va yer ko‘chkilari bilan o‘z qudratini namoyon etdi. Biosfera esa tabiatdagi muvozanat buzilganda turli kasalliklar va zararkunandalar ko‘payishini eslatdi.

Shunda insoniyat asta-sekin anglay boshladi: tabiatga qarshi kurashib bo‘lmaydi. Uni asrash, avaylash va u bilan hamjihat yashash lozim.

Ey, Odamzod! Tabiatning bugungi ogohlantirishlari ertangi kunning fojeasiga aylanib qolmasin. Hali ham kech emas. Daraxt ek, suvni asra, havoni ifloslantirma va ona tabiat bilan sulhda yashashni o‘rgan. Chunki Yer — bizning yagona uyimizdir.

Malikaxon ABDULLAYEVA,
Toshkent shahar Shayxontohur tumani
316-maktab o‘quvchisi

Mutolaadosh

“YOZ YOMG‘IRI”

Bilamizki, detektiv asarlar insonni chuqur o‘ylashga, hodisalar haqida tahliliy fikr yuritishga majbur etadi. Qolaversa, fikrlash doirasini hamda dunyoga boqish burchaklarini ham o‘zgartira oladi. Taniqli o‘zbek adibi O‘lmas Umarbekovning “Yoz yomg‘iri” qissasi ham shunday asarlar sirasiga kiradi. Uni o‘zbek adabiyotidagi “o‘lmas” detektiv asar deyish mumkin. Voqealar yozning so‘nggi kunlaridagi yomg‘ir tomchilari bilan boshlanadi. Yozuvchi badiiy asar chizgilarini yaratar ekan, qaynoq tabiatli yozning oxirgi kunlarini kuzning beqaror kayfiyatiga bog‘lamoqchi bo‘ladi. Bu bilan qahramonlar xarakterini ham yoritishni maqsad qilgandek go‘yo. Asar bosh qahramoni, universitet ilmiy xodimi Rahim Saidovni yoz fasli kabi iliq va ko‘ngilchan tabiatli desak, uning ayoli, hikoya jabrlanuvchisi Munisxonni esa o‘zgaruvchan kuz bilan taqqoslashimiz mumkin.

Hikoya tramvay haydovchi qiz Chorsuda oq tufli kiygan ayolning jasadini ko‘rishi bilan boshlanadi. Aniqlanishicha, bu ayol Munisxon Saidova bo‘lib, tunda hujumga uchragan va halok bo‘lgan. Munisxon va Rahim oilasida farzandsizlik sabab turli janjallar bo‘lib turardi, ammo ularning natijasi Munisxonning eridan qimmatbaho sovg‘alar olishi bilan chiroyli yakun topardi. Voqea sodir bo‘lgan kundagi mojaro ham shunday xotima topishi mumkin edi. Biroq “Ko‘za kunda emas, kunida sinadi”, deyishganidek ayolning qing‘ir ishlari o‘z boshiga kulfat keltirdi. Paxta unumdorligini oshirish uchun viltga qarshi preparat ustida ishlayotgan Saidov ayolining qilmishlarini hech payqamagan. Ta’tilga chiqishga hozirlik ko‘rayotgan tergovchi Aliyevga yangi jinoyat xabari xush kelmaydi. Bu safar ham ishdan bo‘shay olmagani uchun xotini ham undan ranjiydi. Voqealar rivojida shu anglashiladiki, mol-dunyoga o‘ch qo‘qonlik kelin Munisxon sofdil va sodda erini shu vaqtgacha aldab xiyonat qilib kelgan. Qotil esa unga ming so‘mlik dur, zirak va yoqut ko‘zli uzuk hadya qilgan “Gulchehra” magazini xodimi Anatoliy Nazarovich edi. Tergovchining bir qancha urinishlaridan so‘ng uning o‘zi qilmishini tan oladi. Ammo uni qotillikka nima undadi, Munisxonning o‘limiga asl sabab nima degan savollar kitobxonni qiynashi tabiiy. Bu savollarga javob topishni siz – aziz mushtariylarga qoldiramiz. Kitob mutolaasi so‘ngida jinoyat sabablarini o‘rganasiz. Fikrlaringizni bo‘lishish istagi tug‘ilsa “Yangi Bekobod” gazetasi sizning maktublaringizni olishga hamisha tayyor.

Mohidil BOBOJONOVA

YANGI BEKOBOD
Muassis: Bekobod tumani hokimligi

Bosh muharrir
Sarvinoz SHERALIYEVA

Manzilimiz:
"Zafar" shaharchasi, hokimiyat binosi, 3-qavat.
tel: (998) 55 902 59 94
elektron manzilimiz:
E-mail: yangibekobod@umail.uz

Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 12-sentyabrda 03-023 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi 7013.
Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terilib, sahifalandi. Buyurtma №
Adadi 1825 nusxa. "NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumani,"Oq ota" Q.F.Y. Mash’al mahallasi, Markaz-1
Bosishga topshirish vaqti: 10:00.
Bosishga topshirildi: 11:00.

Sahifalovchi-dizayner
Shohida TO‘RAQULOVA

ISSN 2091-5497